

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Gaziyeva Lirik matnda tagma'no va implikativ paradigma.....	232
---	-----

ILMIY AXBOROT

M.T.Zokirov Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir: nazariy yondashuvlar va O'zbekiston amaliyoti	237
A.B.Eshqurbonova Nutqda noverbal vositalar: kommunikativ va pragmatik tahlil	241
X.A.Abdulxamidova Isajon Sultonning "Genetik" romani xronotoplari talqini	246
G.V.Abdullayeva Majoziy obraz yaratish mahorati.....	250
K.T.Israilova O'zbek tilining raqamli muhitdagi sofligi: muloqot gigiyenasi qoidalari.....	255
A.A.Qayumov Kitobxon kodi: biometrik kuzatuvlar orqali tahlil.....	258

Элементы оглавления не найдены.



UO'K: 81'42:81'161.2

**TIL VA MADANIYAT O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR:
NAZARIY YONDASHUVLAR VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI****INTERACTION BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE: THEORETICAL
APPROACHES AND THE CASE OF UZBEKISTAN****ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ:
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА****Zokirov Muxtorali Turdaliyevich** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada til va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligi, tilning xalq tarixi, qadriyatlar va milliy ongining asosiy tashuvchisi sifatidagi o'zni yoritiladi. UNESCO ma'lumotlari asosida jahon til manzarasidagi lingvistik xavf darajasi, ko'p millatli jamiyatlarda til va madaniyat munosabatining dolzarbligi, xususan O'zbekiston misolida millatlararo totuvlik va til siyosati tahlil qilinadi. Fishman, Sepir-Uorf, Verzbitska, Hall, Hofstede kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida madaniyatning kommunikativ xulqqa ta'siri, yuqori va past kontekstli muloqot, murojaat shakllari, salomlashuv, hazil, bilvosita va bevosita nutq kabi hodisalarning madaniy ildizlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari tilning madaniy mazmun tashuvchisi sifatidagi rolini va madaniyatlararo muloqotda uni chuqur anglash zarurligini ko'rsatadi.

Abstract

This article examines the interrelationship between language and culture, emphasizing that language functions as a core carrier of cultural values, worldview, and collective memory. Drawing on global linguistic data and theoretical frameworks, the study highlights the urgency of preserving linguistic diversity, especially in multilingual societies such as Uzbekistan. Through analysis of sociolinguistic theories—including those of Fishman, Sapir-Whorf, Wierzbicka, Hall, and Hofstede—this work explores how communication styles, politeness norms, speech strategies, and humor patterns reflect deeper cultural structures. The article also analyzes Uzbek communicative behavior in contrast with Western low-context cultures, illustrating how cultural values shape linguistic choices. Findings underline the importance of understanding cultural-semantic systems for successful intercultural communication and language policy development.

Аннотация

В данной статье рассматривается взаимосвязь языка и культуры, при этом подчеркивается, что язык выступает основным носителем культурных ценностей, мировоззрения и коллективной памяти. Опираясь на глобальные лингвистические данные и теоретические подходы, исследование выделяет актуальность сохранения языкового разнообразия, особенно в многоязычных обществах, таких как Узбекистан. На основе анализа социолингвистических теорий — включая концепции Фишмана, Сэпир-Уорфа, Вежбицкой, Холла и Хофстеде — работа раскрывает, каким образом коммуникативные стили, нормы вежливости, речевые стратегии и формы юмора отражают глубинные культурные структуры. В статье также проводится анализ узбекского коммуникативного поведения в сопоставлении с западными низкоконтекстными культурами, демонстрируя, как культурные ценности формируют языковые выборы. Полученные результаты подчеркивают важность понимания культурно-семантических систем для успешной межкультурной коммуникации и разработки языковой политики.

Kalit so'zlar: til va madaniyat, lingvistik xilma-xillik, UNESCO, millatlararo muloqot, yuqori kontekstli madaniyat, past kontekstli madaniyat, kommunikativ xulq, etnolingvistika, sotsiologiya, O'zbekiston.

Key words: language and culture; linguistic diversity; multilingualism; intercultural communication; communicative norms; high-context culture; low-context culture; sociolinguistics; Uzbekistan.

Ключевые слова: язык и культура; языковое разнообразие; многоязычие; межкультурная коммуникация; коммуникативные нормы; высококонтекстная культура; низкоконтекстная культура; социолингвистика; Узбекистан.

KIRISH

Til va madaniyat insoniyat taraqqiyotining ajralmas ikki qirradi bo'lib, til xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Olimlar tomonidan "til millatning ko'zgesi" sifatida e'tirof etilgani bejiz emas. Bugungi globallashuv sharoitida lingvistik xilma-xillikni

asrash masalasi hamda ko'p millatli jamiyatlarda til-madaniyat munosabatlarini izchil tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda mavjud 7000 ga yaqin tilning qariyb 40 foizi yo'qolish xavfi ostida. Har ikki haftada bir tilning yo'qolishi, unga xos bilim va madaniyatning ham barham topishini anglatadi. O'zbekiston misolida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillarining tinch-totuv yashashi hamda ularning til va madaniyatlariga hurmat bilan yondashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

Ushbu maqolada til va madaniyatning o'zaro ta'siri, o'zbek jamiyatidagi kommunikativ xulq va madaniy-normalarga xos xususiyatlar, shuningdek, xalqaro nazariyalar asosida turli madaniyatlar bilan taqqoslash masalalari ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Til va madaniyat masalasi ko'plab ilmiy yo'nalishlarda o'rganilgan.

J. Fishman tilni milliy identiklikning ramzi deb bilib, uning yo'qolishini "millat ruhi"ning so'nishi bilan tenglashtiradi. Tilning saqlanishi etnik barqarorlikning kafolati ekanini ta'kidlaydi. E. Sepir va B. Uorf tomonidan ilgari surilgan lingvistik nisbiylik nazariyasi tilning inson tafakkuriga bevosita ta'sirini asoslab beradi. A. Verzbitska "madaniy kalit so'zlar" konsepsiyasini ishlab chiqib, har bir tilning o'ziga xos madaniy mazmun qatlamlariga egaligini ko'rsatadi. E. Hall yuqori va past kontekstli madaniyatlar nazariyasi orqali turli xalqlarda muloqotning qanday tashkil etilishini tahlil qiladi. G. Hofstede madaniy o'lchamlar nazariyasi (kollektivizm–individualizm, qudrat masofasi va boshqalar) muloqotdagi farqlarni izohlashga yordam beradi. Mazkur nazariyalar til-madaniyat o'zaro ta'sirining ilmiy asoslarini shakllantiradi va ushbu maqolada tahlil o'tkazish uchun metodologik zamin yaratadi.

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi: Tavsifiy tahlil – o'zbek tilidagi murojaat shakllari, salomlashuv madaniyati, bilvosita nutq kabi hodisalarni tasvirlash. Qiyosiy tahlil – o'zbek madaniyatidagi kommunikativ xulqni G'arb (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya) madaniyatlari bilan solishtirish. Konseptual tahlil – yuqorida qayd etilgan nazariyalar asosida til va madaniyat munosabatini izohlash. Kontekstual tahlil – kundalik muloqot, til vositalari va nutqiy odatlarning madaniy zamirini ochib berish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq hodisalardir. Har bir xalqning tili – uning tarixi, qadriyati va milliy ongining ifodasi, "til millatning ko'zgusi" ekanligi ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlangan [9]. Darhaqiqat, tilda xalqning dunyoqarashi, urf-odat va an'analari aks etadi. Shu bois tilni saqlash – madaniyatni saqlash demakdir. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda taxminan 7000 til mavjud bo'lib, ularning 40% ga yaqini yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi [6]. O'rtacha har ikki haftada bir til yo'qolmoqda – u bilan birga o'sha tilda ifodalangan betakror bilim va madaniy meros ham barham topadi. Demak, global miqyosda lingvistik xilma-xillikni asrash masalasi dolzarb bo'lib, bu xalqlarning madaniy rang-barangligini saqlashning muhim shartidir [6].

Ko'p millatli jamiyatlarda til va madaniyat munosabatlari masalasi yanada dolzarbdir. Zero bunday jamiyatlarda turli tillarda so'zlashuvchi elatlar bir makonda yashab, o'zaro aloqada bo'ladi. O'zbekiston misolida ko'rsak bo'ladiki, 130 dan ortiq millat va elat vakillari yurtimizda bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashab kelmoqda [5]. Bunday totuvlikning asosi sifatida xalqimizga azaldan xos bo'lgan millatlararo bag'rikenglik va hurmat an'analari muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat hududida yashovchi barcha millat vakillarining tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilish, ularni rivojlantirish uchun sharoit yaratish kafolatlangan [8]. Demakki, yurtimizda til va madaniyatlararo munosabatlarni muvozanatda olib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

Mazkur masalaning nazariy va amaliy ahamiyati keng bo'lib, til va madaniyat o'zaro aloqasi turli ilmiy yo'nalishlarda o'rganib kelinmoqda. Tilshunoslik va sotsiologiya kesishgan nuqtada J. Fishman tilni milliy identiklik ramzi sifatida talqin etib, til yo'qolishi millatning "ruhi" yo'qolishiga teng ekanini ta'kidlaydi [2]. Xususan, Fishman tadqiqotlarida tilni saqlab qolish va rivojlantirish madaniy xilma-xillikni va etnik barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani uqtiriladi [2, 177-180]. Shu bilan birga, E. Sepir va B. Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi til va tafakkur bir-biriga ta'sirini ochib berdi [10]. Polshalik olim A. Verzbitska madaniy kalit so'zlar va madaniy ssenariylar konsepsiyasini ilgari surib, har bir til o'ziga xos ma'no qatlamlariga ega ekanini

ILMIY AXBOROT

ko'rsatdi [3]. Amerikalik antropolog E. Hall yuqori va past kontekstli madaniyatlar nazariyasi orqali turli xalqlarda muloqot uslublarining farqini tushuntirdi [1]. Shuningdek, G. Hofstede tadqiqotlarida madaniyatlararo tafovutlar jamoaviylik-individualizm, qudrat masofasi kabi o'lchamlar orqali tahlil qilinib, bu farqlar til va muloqotga qanday ta'sir etishi izohlanadi [3].

Shunday qilib, til va madaniyat munosabatlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Multimadaniyatli makonda ushbu munosabatlarni tahlil qilish orqali madaniyatlararo muloqot muammolarini anglash, ularni hal etish yo'llarini topish mumkin bo'ladi. Quyida O'zbekistondagi til va madaniyat aloqalarini, ularning namoyon bo'lishini nazariy manbalar va amaliy misollar asosida ko'rib chiqamiz.

Har bir xalqning til qo'llash odatlari o'sha millatning ijtimoiy-madaniy konteksti bilan chambarchas bog'liq. Kommunikativ xulq va nutq madaniyati jamiyatdagi qadriyatlarga mos ravishda shakllanadi. Masalan, xalqimiz azaldan kattalarga hurmat, kichiklarga mehr tamoyiliga amal qilgani bois o'zbek tilida murojaat shakllari va odob-qoidalari ancha murakkab va nozik tizimni tashkil etadi. Kattalarga "Siz" deb murojaat qilish, turli izzat-hurmat ifodalovchi so'z va iboralarni qo'llash odati kuchli. Boshqa tomondan, ayrim G'arb jamiyatlarida, muloqot jarayoni nisbatan sodda va rasmiyatchilikdan xoli – hammaning ismi bilan chaqirilishi yoki "sen" shaklida umumiy murojaat qilingani kuzatiladi. Bu farq, tabiiyki, madaniy zaminga borib taqaladi: jamoaviylik ruhida an'anaviy jamiyat odamlardan muomalada masofani saqlash, maromiga yetkazib gapirishni talab qilsa, individualistik jamiyat ochiqko'ngillik va bevosita, oshkora muloqotni qadrlaydi [7, 177-178].

E. Hall ta'biri bilan aytganda, o'zaro muloqot jarayonida yuqori kontekstli madaniyatlar ko'p narsani lom-mim demay turib, kontekst orqali anglatga, past kontekstli madaniyatlar vakillari fikrni ochiq va to'g'ridan-to'g'ri ifodalashga moyildir [1, 1-4]. O'zbek va umuman Sharq muloqot madaniyati ko'pincha yuqori kontekstli bo'lib, suhbatda bilvosita ifodalar keng qo'llanadi. Masalan, o'zbeklar rad javobini ham bezovta qilmaydigan tarzda "ko'ramiz", "balki" kabi so'zlar bilan berishga harakat qiladi, yoki noqulay savolga to'g'ridan-to'g'ri "yo'q" demasdan, sukut saqlash yoki mavzuni chetlab o'tish bilan javob qaytaradi. Aksincha, past kontekstli madaniyatlarda (AQSH, Germaniya va boshqalar) muloqot ochiq-oshkora kechadi, savolga javob berishda yoki fikr bildirishda bevosita tushuncha berish odatiy hol sanaladi. Bu esa har ikki tur jamiyat vakillari o'zaro muloqotga kirishganda ba'zan kulgi yoki noqulaylikka sabab bo'lishi mumkin – chunki biri ikkinchisining "o'ralash" yo "ochiqchasiqa aytish" uslubini to'g'ri tushunmay qolishi mumkin.

Turli millatlar odatiy til vositalari va nutqiy uslublariga misollar ko'p. Masalan, ingliz tilida kundalik salomlashuv oddiy "Hello" yoki "Good morning" bilan cheklanishi mumkin, o'zbek tilida esa "Assalomu alaykum" kabi so'z bilan birga qo'l berib ko'rishish, hol-ahvol so'rashish kabi noverbal harakatlar an'anaviy odatdir. Bu salomlashuv odobi ortida har bir xalqning madaniyati yotibdi: ingliz tilida qisqa salomlashuv va tezkor muloqot pragmatizmi sezilsa, o'zbeklarda uzunroq hol-ahvol so'rashish orqali samimiyat va yaqinlik ko'rsatish maqsadi borligi ko'rinadi [7, 177-178]. Xuddi shuningdek, mehmon kutish va mehmondo'stlik ifodalarida ham farqlar mavjud. Ingliz tilida "Make yourself at home" yoxud "Would you like a cup of tea?" tarzida takliflar bildirilsa, o'zbek tilida mehmonni iliq kutib olish uchun "Xush kelibsiz, marhabo", "Oq yo'l" (uzoq yo'ldan kelgan mehmonni qarshilash) kabi iboralar, so'ng dasturxonga chaqirish kabi an'analar qo'llaniladi. Ko'rinib turibdiki, bir qarashda oddiy til birliklari ortida turli madaniy me'yorlar yashiringan bo'lib, ular xalq hayot tarzi va qadriyatlaridan darak beradi [7, 177-178].

Shuningdek, kinoya va hazilni qo'llashda ham madaniy farqlar seziladi. Masalan, Buyuk Britaniya va Amerika muloqotida sarkazm ko'pincha hazil vositasi sifatida qo'llanib, ironiya orqali fikr bildirish keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek madaniyatida hazil asosan samimiy kulgi va xalqona latifalar tarzida namoyon bo'ladi. O'zbekchada hazil ko'pincha teskari ma'noda maqtab koyish (misol uchun, birorta ishni eplay olmaganga "Qoyil, rosa ishni bitirdingiz!" tarzida kinoya qilish) ko'rinishida bo'ladi. Ingliz madaniyatida esa hazil ko'pincha global mavzudagi so'z o'yini yoki istehzoli vaziyatni tushunishga quriladi, bu esa boshqa madaniyat vakillariga ba'zan tushunarsiz bo'lishi mumkin. Demak, xalqning mentaliteti va ijtimoiy tajribasi uning hazil-mutoyiba uslublarida ham aks etadi.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-madaniy kontekst til qurilishiga va undan foydalanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turli millat vakillari turlicha nutq madaniyatiga ega: ularning biri uchun odob-san'at hisoblangan narsa ikkinchisi uchun ortiqcha rasmiyatchilik bo'lishi

mumkin yoki aksincha, biri uchun odatiy bo'lgan bevosita uslub ikkinchisi nazarida qo'pol tuyulishi mumkin. Shu bois madaniyatlararo muloqotda har bir millatning til ishlatish odatlarini, ularning ortidagi madaniy sabablarni bilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa til va madaniyat munosabatlarini ilmiy o'rganishni talab qiladi.

XULOSA

Til va madaniyat o'zaro uzviy bog'langan murakkab hodisalardir. Til xalqning madaniy merosini, ruhiy-kechinmalarini va dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. O'zbekiston kabi ko'p millatli jamiyatlarda til-madaniyat munosabatlarini o'rganish madaniyatlararo muloqot samaradorligini ta'minlash, jamiyatda totuvlikni mustahkamlash va til siyosatini ilmiy asoslash uchun katta ahamiyatga ega. Turli madaniyat vakillarining kommunikativ madaniyatini chuqur o'rganish global kommunikatsiya sharoitida yanada muhim bo'lib bormoqda.

ADABIYOYTLAR RO'YXATI

1. Edward T. Hall *The Silent Language*. – New York: Knopf Doubleday Publishing Group, 1990, – 224 b.
2. Fishman J.A. *Reversing Language Shift: Theory and Practice of Assistance to Threatened Languages*. – Clevedon: Multilingual Matters, 1991. – P. 177–180. (- 421 p.)
3. Gladkova A.N., Larina T.V. *Anna Wierzbicka: language, culture and communication // Russian Journal of Linguistics*. – 2018. – vol. 22, №4. – P. 717-748.
4. Hofstede G. *Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations*. – 2nd ed. – California: Thousand Oaks: Sage Publications, 2001. – P. 33–38.
5. <https://kun.uz/news/2017/06/15/uzbekistonda-130dan-ortik-millat-va-elat-vakillari-ail-asab-kelmokda>. (murojaat sanasi 25.07.2025)
6. <https://www.unesco.org/en/articles/multilingual-education-bet-preserve-indigenous-languages-and-justice#> (murojaat sanasi 25.07.2025)
7. Majitova A.T. Linguacultural features of phraseological units in English and Uzbek languages // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2021. Volume 2, Issue 8, – B. 173–174.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Birinchi bo'lim birinchi bob 4- modda. <https://lex.uz/docs/-6445145>
9. Xasanova K.B. Madaniyat va til bog'liqligi // *Ilmiy maqola*. – TerDU, 2020. – B. 43–58.
10. Yuldasheva Dilshoda Musayevna. *Edvard Sepimning ilmiy merosi: lingvo-kognitiv tahlil*. Filol. fan.doktori (DSc) disser. avtoreferati. Farg'ona, 2024, - 69 b.